

Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg Minbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik jamiyatining gazetasi

2026-yil 26-mart № 5 (1567)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

"DOLZARB 30 KUN"

"O'zmetkombinat" AJda mart-aprel oylarida "Dolzarb 30 kun" chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilishi belgilandi.

2 ➔

KUNDALIK EHTIYOJ

Biz ko'p narsaga ulgurishga harakat qilamiz. Biroq, ko'pincha qimmatli boyligimiz – salomatligimizni unutib qo'yamiz.

3 ➔

QAYTAR DUNYO

Kamoliddin shifoxonada mashhur jarroh edi. Tajribali va ilimli – qo'li yengil edi. Ammo u pulsiz bemorga qaramasdi.

4 ➔

QUYUV-PROKATLASH MAJMUASI

YANGI MAJMUA – YANGI IMKONIYATLAR

Yurtimizda sanoatni modernizatsiya qilish, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ichki bozorni raqobatbardosh mahsulotlar bilan ta'minlash borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, metallurgiya sohasida yirik investitsiya loyihalarining hayotga tatbiq etilishi tarmoq rivojida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ana shunday istiqbolli loyihalardan biri – "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatida ishga tushirilgan Quyuv-prokatlash majmuasidir.

Metallurgiyada yangi bosqich

Quyuv-prokatlash majmuasi o'tgan yil dekabr oyida ishga tushirildi. Majmuada eng zamonaviy texnologiyalar asosida yuqori sifatli po'lat o'ramlari ishlab chiqarilmoqda. Mahsulotlar qat'iy sifat nazoratidan o'tkaziladi, bu esa barqarorlik va ishonchlilikni ta'minlash imkonini beradi.

Po'lat o'ramlari qurilish, mashinasozlik va boshqa ko'plab sanoat tarmoqlarida keng qo'llaniladi. Yurtimizda avtomobilsozlik jadal sur'atlarda rivojlanib bormoqda va ushbu tarmoq uchun sifatli po'lat mahsulotlariga ehtiyoj ortib bormoqda. Kelgusida kombinat mazkur sohani ham sifatli po'lat o'ramlari bilan ta'minlashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

Ma'lumki, ushbu loyihani amalga oshirish jarayonida bir qator xorijiy korxonalar

dilari asosida amalga oshiriladi. Majmuada quvvati 120 tonnalik elektr yoy pechi ishlaydi va unda metall eritish jarayoni taxminan 48 daqiqa davom etadi.

Bu yerda 1539 darajadan yuqori haroratda



qurilmalarda mahsulot rulon shaklida o'raladi. Har bir rulon robot yordamida belgilab qo'yilib, unga maxsus identifikatsiya raqami beriladi. Ushbu raqam orqali mahsulotning og'irligi, o'lchami va metall tarkibi haqidagi barcha ma'lumotlarni aniqlash mumkin.

Kombinat mutaxassislari Italiyadagi "Danieli" kompaniyasining o'quv markazida tayyorlikdan o'tgan va amaliy mashg'ulotlarda ishtirok etgan. Shuningdek, o'quv jarayonlari bevosita korxona hududida ham tashkil etilgan.

Import va eksport salohiyati

Ushbu mahsulotlar avval O'zbekistonga import qilingan bo'lsa, bugungi kunda majmuada import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda. Ayni paytda 1,2 mmdan 12 mmgacha bo'lgan qalinlikdagi po'lat listlar ishlab chiqarilmoqda. Bu nafaqat valyutani tejash, balki mahalliyashtirish darajasini oshirishga xizmat qilmoqda.

(Davomi 2-sahifada).



ishtirok etdi. Jumladan, Italiyaning "Danieli" kompaniyasi texnologik loyihalash, asosiy uskunalarni yetkazib berish hamda mutaxassislarni tayyorlashda faol qatnashdi.

Majmuaning yillik ishlab chiqarish quvvati 1 million 40 ming tonnani tashkil etadi. Quyuv-prokatlash majmuasi ikkita yirik bo'linma – po'lat eritish, po'latni uzluksiz quyish va prokatlash bo'linmalaridan iborat.

Texnologik jarayonlar va yuqori aniqlik

Korxonada po'lat ishlab chiqarish jarayoni to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, metall chiqin-

po'lat eritilib, unga kompleks ishlov beriladi. Vakuumator uskunasi yordamida metall tarkibidagi zararli gazlar chiqarib tashlanadi. So'ng suyuq metall po'lat kovshlar orqali uzluksiz quyish uskunasi yuboriladi.

Keyingi bosqichda po'lat tunnel pechlarida 1050–1150 daraja haroratda qizdirilib, yozish va cho'zish jarayoniga tayyorlanadi. Bu yerda 5 ta zamonaviy stend yordamida metall qalinligi bosqichma-bosqich kamaytirilib, 1,4–1,5 mmgacha yetkaziladi.

Mahsulot sifati yuqori aniqlikda rentgen nazorati tizimi orqali tekshiriladi. Ushbu tizim qalinlik, kenglik va uzunlikni 20–40 mikrometr aniqlikda o'lchaydi. Agar ko'rsatkichlarda farq aniqlansa, tizim darhol uskunalariga signal yuborib, jarayonni avtomatik tarzda moslashtiradi.

Shundan so'ng po'lat tasma sovutish tizimidan o'tkazilib, rolikli liniya orqali o'rash jarayoniga yuboriladi. Maxsus



YIRIK LOYIHALAR IJROSI TIZIMLI NAZORAT QILINADI

SANOAT KENGASHI TUZILADI

Tog'-kon, metallurgiya, kimyo va neft-gaz kabi bazaviy tarmoqlarda yirik loyihalar ijrosini tizimli nazorat qilish maqsadida Prezident rahbarligida Sanoat kengashi tuzilishi ma'lum qilindi. Bu haqda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Olmaliq kon-metallurgiya kombinatiga tashrifi doirasida ma'lum qilindi.

Ushbu kengash doirasida yirik korxonalarni xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish, tannarx va energiya sarfini kamaytirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, mahalliy kontentni oshirish, barcha jarayonlarni raqamlashtirish, sun'iy intellektni joriy etish, investitsiya va eksportni ko'paytirish bo'yicha oylik ish rejalari tasdiqlanadi.

2030-yilga qadar O'zbekistonda oltin ishlab chiqarishni 175 tonnaga, kumushni 500 tonnaga, uranni 15 ming tonnaga, misni 500 ming tonnaga yetkazish bo'yicha belgilangan marjalarga erishish uchun barcha imkoniyatlar to'liq safarbar etiladi.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasining keyingi navbatlarini jadallashtirish yuzasidan aniq vazifalar belgilandi. Mazkur loyiha ning texnologik davomi hisoblangan yangi mis eritish zavodini barpo etish masalalari ham ko'rib chiqildi. Unda texnik-iqtisodiy asosni yakunlash, xorijiy ekspertlarni jalb qilish, qisqa muddatlarda qurilish ishlarini boshlash yuzasidan mas'ullarga aniq vazifalar yuklatildi.

falar yuklatildi.

Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati doirasida "Muruntov" konini kengaytirishning navbatdagi bosqichi, yangi konlarni o'zlashtirish, murakkab rudalardan oltin ajratib olish texnologiyalarini joriy etish, shuningdek, ayrim yirik loyihalar bo'yicha investorlar bilan hamkorlik mexanizmlarini qayta ko'rib chiqish yuzasidan topshiriqlar berildi.

Metallurgiya yo'nalishida "O'zmetkombinat"da ishlab chiqarish hajmini oshirish, ichki xomashyo bazasidan samarali foydalanish, raqobatbardosh mahsulot turlarini ko'paytirish, bozor talabiga mos metall listlar ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish masalalari ko'rib chiqildi. Bu borada xomashyo ta'minoti, mah-

sulot turlarini diversifikatsiya qilish va yangi bozorlarni o'zlashtirish bo'yicha aniq choralar belgilandi.

Yig'ilishda Texnologik metallar kombinati faoliyatiga ham to'xtalib, sanoat uchun muhim metallar va murakkab qotishmalar ishlab chiqarishni kengaytirish, selen, tellur, kukun metallurgiyasi detallari va boshqa yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha loyihalarni jadallashtirish vazifasi qo'yildi.

Tarmoq korxonalarida tannarxni pasaytirish va xarajatlarni qisqartirish masalalari ham diqqat markazida bo'ldi. Mas'ullarga mahsulot tannarxini qisqartirish, energiya sarfini kamaytirish, resurslardan tejamkor foydalanish va oylik aniq natijalarga erishish bo'yicha manzilli dasturlar ishlab chiqish topshirildi.

Yig'ilishda sohada amalga oshirilayotgan 22 milliard dollarlik loyihalar doirasida 38 mingta yangi ish o'rni yaratilishi, jumladan, 7,5 ming muhandis va 14 ming o'rta bo'g'in mutaxassislariga ehtiyoj paydo bo'lishi qayd etildi. Shu munosabat bilan sohadagi oliy ta'lim muassasalari va texnikumlar faoliyatini yangi talablar asosida tashkil etish, ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalarga moslashtirish, dual ta'limni keng joriy etish, diplom ishlarini bevosita ishlab chiqarish vazifalari bilan bog'lash bo'yicha ko'rsatmalar berildi.

Ismat DIYOROV.



"O'zmetkombinat" AJda joriy yilning mart-aprel oylarida "Dolzarb 30 kun" chora-tadbirlar dasturi amalga oshirilishi belgilandi. Mazkur tashabbus ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ichki intizomni mustahkamlash hamda korxona faoliyatini tizimli rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, jamoada mas'uliyat va faollikni yanada oshirishga xizmat qiladi.

"DOLZARB 30 KUN" E'LON QILINDI

Dastur doirasida hududlarni obodonlashtirish, sanitariya holatini yaxshilash va ko'kalamzorlashtirish ishlari keng ko'lamda olib boriladi. Ishlab chiqarish binolari, ma'muriy inshootlar va ishchi hududlarda tozalik va tartibni ta'minlash, atrof-muhitni muhofaza qilishga alohida e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish jarayonlarining uzluksizligini ta'minlash, xomashyo va resurslar bilan to'liq va o'z vaqtida ta'minlash ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

Shuningdek, yil boshidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar har tomonlama tahlil qilinib, ularning sabablari chuqur o'rganiladi. Ishlab chiqarish rejalardagi ortda qolishlarni qisqa muddatda bartaraf etish, ish samaradorligini oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. Bu borada zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish va ilg'or tajribalarni joriy etishga ham alohida ahamiyat beriladi.

Xodimlar uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratish, ularning ijtimoiy himoyasini kuchaytirish hamda mehnat muhofazasi va sanoat xavfsizligi talablariga qat'iy rioya etish masalalari doimiy e'tibor markazida bo'ladi.

Shu ningdek, xodimlarning malakasini oshirish, jamoada sog'lom ish muhitini shakllantirishga qaratilgan ishlar ham dasturning muhim yo'nalishlaridan biridir.

Ushbu "Dolzarb 30 kun" dasturi korxona faoliyatida sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berishi, ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini yaxshilash hamda umumiy samaradorlikni sezilarli darajada oshirishga xizmat qilishi kutilmoqda.

**Zoir
SALIMJONOV.**

YANGI MAJMUA – YANGI IMKONIYATLAR

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Shuningdek, majmuada ekologik talablarga ham alohida e'tibor qaratilgan. Maxsus gaz va chang tozalash tizimlari orqali ishlab chiqarish jarayonida ajralib chiqadigan zararli moddalarning atrof-muhitga ta'siri minimal darajaga tushirilgan.

Joriy yilda kombinatda 150 ming tonna mahsulot ishlab chiqarish rejalashtirilgan.



Mahsulotlar milliy va xalqaro standartlar asosida tayyorlanib, tegishli sifat sertifikatlariga ega. Ularning sifati va ko'rsatkichlari eksport talablariga to'liq javob beradi.

Hozirda tayyor mahsulotlarga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. Mahalliy bozor bilan bir qatorda xorijiy davlatlardan ham xaridorlar kelmoqda.

Quyuv-prokatlash majmuasining ishga tushirilishi mamlakatimiz metallurgiya sanoatida yangi bosqichni boshlab berdi. Zamonaviy texnologiyalar, yuqori samaradorlik va sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyati nafaqat ichki bozor ehtiyojini qondirish, balki eksport salohiyatini ham kengaytirishga xizmat qilmoqda. Eng muhimi, ushbu loyiha yangi ish o'rinlarini yaratish, import o'rnini bosish va milliy sanoatni yanada mustahkamlashda muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Diyor ZULFIQOROV.

TOZALIK – BU XAVFSIZLIK HAMDIR

O'lkamizga bahor kirib kelishi bilan tabiatning yashil rangga burkanishi, atrof-muhitning yangilanishi quvonarli holat albatta. Ammo bu yashillikning kunlar qizib borishi bilan oltin rangga kirib borishi ham haqiqat. Fasllarning ushbu almashinuvi jarayoni insonlardan alohida ehtiyotkorlikni talab etadi.

April, may oylaridan kunlar isib borib, yoz fasli kirib kelishi bilan issiqlik darajasi ortib boradi. Bunday sharoitda kombinatimizda yong'in xavfsizligining oldini olish maqsadida bir qator tadbirlarni amalga oshirishimiz, e'tiborli bo'lishimiz talab etiladi.

Avvalambor "O'zmetkombinat" AJ bo'linmalari va uchastkalarida yonuvchan chiqindilar, texnik, qurilish chiqindilari, plastiklar, bo'sha-

gan bo'yoq idishlari, qadoq qutillarini hududlarda, xonalarda saqlamaslik lozim.

Atrof-muhitning tozaligi, uning ortiqcha yonuvchan mahsulotlardan holi bo'lishi har birimizning xotirjam va samarali mehnat faoliyatimizga kafolat bo'ladi. Aksincha holatlarda esa yoki e'tiborsizlik natijasida yong'in kelib chiqishi, tarqalishi, atmosferaga zararli massalarning ko'tarilishiga olib keladi.

Kombinat hududini toza saqlashimiz va shu orqali yong'in xavfsizligini ta'minlash har birimizning vazifamizdir.

**Shahobiddin OMONOV,
"O'zmetkombinat" AJ
OFVB inspektori,
katta leytenant.**

PARTIYA HAYOTI

USTUVOR VAZIFALAR BELGILAB OLINDI

“O‘zmetkombinat” Ajda O‘zLiDeP boshlang‘ich partiya tashkilotining navbatdagi hisobot-saylov yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Yig‘ilishda Bekobod shahar hokimi Nasrullo Boboyev, O‘zLiDePning Toshkent viloyati Siyosiy Kengashi raisi To‘lqinjon Fayziyev, “O‘zmetkombinat” AJ Boshqaruvi raisi – Bosh direktori Bahodir Abdullayev, tarkibiy bo‘linmalar rahbarlari, partiya faollari hamda taklif etilgan mehmonlar ishtirok etdilar.

Mazkur yig‘ilishda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar, sanoat tarmoqlarini izchil rivojlantirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda partiyaning vazifalari muhokama qilindi.

Tadbirda boshlang‘ich partiya tashkiloti faoliyatini yanada takomillashtirish, uning

ta’sirchanligini oshirish va zamonaviy yondashuvlarni joriy etish yuzasidan qator muhim taklif va tashabbuslar ilgari surildi. Xususan, jamoa o‘rtasida ochiq muloqotlarni ko‘paytir-

ish, yosh kadrlarni partiya ishlariga keng jalb etish, shuningdek, ishlab chiqarishda innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash kabi masalalarga alohida e’tibor qaratildi.

Yig‘ilish kun tartibiga muvofiq boshlang‘ich partiya tashkiloti raisi saylandi. Ovoz berish yakunlariga ko‘ra, Davlat Xolmurodov “O‘zmetkombinat” AJ boshlang‘ich partiya tashkiloti raisi etib saylandi.

Yig‘ilish yakunida kun tartibidagi barcha masalalar yuzasidan tegishli qarorlar qabul qilinib, kelgusidagi ustuvor vazifalar aniq belgilab olindi. Ushbu qarorlar “O‘zmetkombinat” jamoasida partiya faoliyatini yanada kuchaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish hamda mamlakatimiz taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shishga xizmat qilishi shubhasiz.

Murod DAVLATOV.



OCHIQ MULOQOT MAYDONI

YOSHLARGA E’TIBOR –
KELAJAKKA POYDEVOR

Davlat rahbari tashabbusi bilan endilikda har payshanba kuni “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlarini o‘tkazish tizimli yo‘lga qo‘yildi. Ushbu muloqotlar yoshlarning fikrini tinglash, ularning muammo va tashabbuslariga bevosita e’tibor qaratish uchun samarali maydon vazifasini bajarmoqda. Mazkur tashabbus “O‘zmetkombinat”da ham izchil amalga oshirilmoqda.

Uchrashuvlar davomida yoshlar o‘z g‘oya va takliflari, shuningdek, ularni qiynayotgan masalalar yuzasidan erkin fikr bildirish imkoniga ega bo‘lmoqda. Samimiy va ochiq muloqot ruhida o‘tayotgan bunday uchrashuvlar yoshlar uchun nafaqat muammolarini bayon etish, balki o‘z tashabbuslari bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkonini ham yaratmoqda.

Kombinatda yosh mutaxassislarini bilimli va malakali kadrlar etib tarbiyalash uchun shart-sharoitlar yaratilgan. Tajribali va malakali mutaxassislar o‘z mehnati va hayotiy tajribasi bilan yoshlarga ibrat bo‘lishi lozim. “Qush uyasida ko‘rganini qiladi”, degan xalq naqli bejiz aytilmagan. Yoshlar, avvalo, kattalardan o‘rnak oladi.

Yosh mutaxassislarni yetuk kadrlar sifatida shakllantirish yo‘li-

da izchil va manzilli ishlar olib borish muhim ahamiyat kasb etadi. Bugungi kunda yoshlar o‘zlari qiziqqan sohalarini ustozlar ko‘magida, shuningdek, mustaqil ravishda o‘rganib bormoqdalar. Kombinatimiz yosh mutaxassislari ham o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifa va topshiriqlarni vijdonan bajarib kelmoqdalar.

Shu bois, rahbarlar ularning har tomonlama kamol topishi, yuksak salohiyatli, vatanparvar, tashabbuskor hamda jamiyatga naf keltiradigan insonlar bo‘lib yetishishlari uchun zarur sharoitlarni yaratish va ularni doimiy qo‘llab-quvvatlashlari ustuvor vazifa bo‘lib qolishi kerak.

Diyora AHMEDOVA.



SO‘RAGAN EDINGIZ...

ARIZANI QAYTARIB OLISH MUMKINMI?

Agar xodim ishdan bo‘shash haqida ariza yozgan bo‘lsa, ammo keyin qarorini o‘zgartirsa, arizasini qaytarib olish mumkinmi? Ayniqsa, rahbar o‘rniga boshqa nomzodni taklif qilib ulgurgan bo‘lsa-chi?

K. Ozodbekov.

Mehnat kodeksining 160-moddasiga ko‘ra, xodim o‘z tashabbusi bilan mehnat shartnomasini bekor qilish haqida ariza berganda, 14 kunlik ogohlantirish muddati belgilanadi. Shu muddat ichida xodim o‘z arizasini qaytarib olish huquqiga ega.

Bu huquq qonun bilan kafolatlangan bo‘lib, ish beruvchining ixtiyoriga bog‘liq emas. Arizani qaytarib olish uchun xodim bu haqda yozma ravishda murojaat qilishi lozim.

Qonunchilikka ko‘ra, hatto xodim o‘rniga boshqa nomzod taklif etilgan bo‘lsa ham, bu holat avvalgi arizani qabul qilmaslik uchun asos bo‘la olmaydi. Chunki yangi xodim faqat avvalgi mehnat shart-

nomasi qonuniy tarzda tugatilgandan so‘ng ishga qabul qilinishi mumkin.

Agar 14 kunlik muddat tugamasdan turib xodim arizasini qaytarib olsa, ish beruvchi uni ishdan bo‘shatishga haqli emas. Aks holda, xodim sudga murojaat qilib, ishga tiklanish va yetkazilgan zararini qoplashni talab qilish huquqiga ega.

Xulosa: ariza berilganidan keyin 14 kunlik muddat tugamagan bo‘lsa, xodim uni qaytarib olish huquqiga ega.

Inomjon ESHONQULOV,
huquqshunos.



SOG‘LOM TURMUSH TARZI

ORZU EMAS,
KUNDALIK EHTIYOJ

Bugungi shiddatli zamonda biz ko‘p narsaga ulgurishga harakat qilamiz: martaba, o‘qish, oila va ijtimoiy majburiyatlar. Biroq, bu poygada ko‘pincha eng qimmatli boyligimiz – salomatligimizni unutib qo‘yamiz. Sog‘lom turmush tarzi bu o‘z tanamizga bo‘lgan hurmat va uzoq umr ko‘rish garovidir.

Salomatlikning “to‘rtta ustuni”

Mutaxassislarning ta’kidlashicha, inson salomatligi 50 foiz holatda uning turmush tarziga bog‘liq.

To‘g‘ri ovqatlanish – tanamiz yoqilg‘isi. Ratsionda meva-sabzavotlar, donli mahsulotlar, oqsillarning muvozanati bo‘lishi shart. Fast-fud, haddan tashqari shirinlik va gazli ichimliklardan voz kechish – bu o‘zingizga bergan eng katta sovg‘angiz bo‘ladi.

Harakat – hayot manbai. Kam harakatsizlik zamonamizning eng katta muammosi. Kuniga atigi 30 daqiqa piyoda yurish yoki oddiy badantarbiya mashqlari yurak-qon tomir kasalliklari xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Uyqu va dam olishning ahamiyati. Tungi uyqu vaqtida organizm qayta tiklanadi. Surunkali uyqusizlik immun tizimini zaiflashtiradi va asab tizimiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Kattalar uchun 7–8 soatlik sifatli uyqu – bu dori bilan davolab bo‘lmaydigan quvvat manbaidir.

Zararli odatlardan voz kechish. Tamaki va alkohol mahsulotlari nafaqat inson a’zolarini yemiradi, balki hayot sifatini tubdan pasaytiradi. Sog‘lom turmush tarzini tanlash – bu ozodlikni tanlash demakdir.

Sog‘lom turmush tarzi sizga quyidagilarni beradi:

- yuqori energiya va ishchanlik qobiliyati;
- mustahkam immunitet va kamroq kasallanish;
- ruhiy xotirjamlik va stressga chidamlilik;
- tashqi ko‘rinishning yaxshilanishi va yosharish.

Esingizda bo‘lsin: salomatlik — bu siz o‘z kelajagingiz uchun kiritayotgan eng foydali sarmoyadir.

Muhayyo ABDURAIMOVA,
Gulasal ALLABERDIYEVA,
Bekobod shahar 1-Oilaviy poliklinika
tibbiy brigada oila patronaj hamshiralari.

METALLURGLAR IJODIDAN

QAYTAR DUNYO

Kamoliddin shahar shifoxonasida mashhur jarroh edi. Qo'li yengil, operatsiyalari ko'p hollarda muvaffaqiyatli o'tar edi. Ammo u pulsiz bemorga qaramasdi.

Bemorlar hamshiralar orqali "masalani hal qilishi" kerak edi. Agar pul bo'lsa – operatsiya tez boshlanardi. Agar pul bo'lmasa, turli bahonalar topilardi: analiz kerak, navbat bor, operatsiya xonasi band...

Bir kuni qornida qattiq og'riq bilan bir yigitni olib kelishdi. Onasi yig'lab iltijo qildi:

– Doktor, bolamni saqlab qoling... pulim yo'q...

Kamoliddin esa turli bahonalarini ro'kach qilib operatsiyani orqaga suraverdi.

Yigit o'sha kecha operatsiyasiz jon berdi.

Bu esa Kamoliddin uchun oddiy kunlardan biri bo'lib qolaverdi.

Yillar o'tib, Kamoliddin oilasi bilan boshqa viloyatga sayohatga bordi. Kechqurun birdan yolg'iz o'g'li Azizjonning ahvoli og'irlashdi. Bu jarrohlikka bog'liq kasallik emas edi va Kamoliddin

uni tushunmadi.

Ular shoshib tuman shifoxonasiga borishdi.

– Iltimos, vrach chaqiring! Bolamni saqlab qolinglar!

Bir vrach shoshmasdan keldi:

– Avval ro'yxatdan o'tinglar... analiz kerak... apparat band...

Kamoliddin bu gapni eshitib muzlab qoldi.



Bu gap unga juda tanish edi.

Vaqt o'tib borardi. Rasmiy ishlar cho'zilar edi. Azizjonning nafasi tobora sekinlashdi.

Kamoliddin titrab dedi:

– Iltimos, avval bolamni qutqaring... hammasi keyin bo'ladi. Yonimda yetarlicha pul yo'q. Hozir keltiraman...

Ammo vaqt o'tar, Azizjonning nafasi sekinlashardi.

– Dada...

Bu o'g'lining oxirgi so'zi bo'ldi.

Turli bahonalar bilan operatsiyani kechiktirgan har bir daqiqa kimningdir aziz kishisining hayotini saqlab qolish uchun oxirgi imkoniyat bo'lishi mumkinligini, bu esa bemorning yaqinlariga qanchalik katta azob berishini Kamoliddin o'z boshidan o'tkazib angladi.

Xulosa:

Hayotda qilingan har bir yaxshilik yoki yomonlik baribir insonning o'ziga qaytib keladi. Shu uchun har bir inson o'z ishida halol, adolatli va vijdonli bo'lishi kerak.

Diyor ZULFIQOROV.

QISQA VA TA'SIRLI HIKOYALAR



IMON VA SHUBHA

Bir quyon bo'lgan ekan, u ovchilarning borligiga ishonmasdi. Faqat ularni o'rmonda uchratganda, ovchilar haqiqatan ham borligini tushundi.

Ammo endi kech bo'lgan edi...



YERNIKILAR

– Bu yer meniki – debdi bir odam.

– Yo'q, meniki – javob qaytaribdi ikkinchisi.

Yer og'ir xo'rsinibdi-da:

– Ikkalang ham menikisan, – debdi.

HIKMATLAR XAZINASIDAN

**Yaxshilik qil, jahon yaxshilik olsin,
Yaxshilar boshiga yaxshilik solsin.
Mol-dunyo barchadin – sendan ham qolur,
Yaxshisi mol emas, yaxshilik qolsin.**

Abdurahmon Jomiy.

**Har kimki vafo qilsa vafo topqusidur,
Har kimki jafo qilsa jafo topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq hargiz,
Har kimki yomon bo'lsa jazo topqusidur.**

Z.M. Bobur.

**Illat izlaganga illatdir dunyo,
G'urbat izlaganga g'urbatdir dunyo.
Kim neki izlasa topgay begumon,
Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo.**

Sadriddin Salim
Buxoriy

HANGOMALAR



– Ayblanuvchi Qo'dirov! Siz soliq to'lashdan prokuror aytgan usullar orqali qochganmisiz?

– Yo'q, men unday qilmaganman. Lekin prokuror aytgan usullar juda "qiziq" ekan, ularni ham o'rganib ko'rish mumkin ekan.

– Talabalar kredit mavzusida dars o'tishyapti. Bir talaba o'qituvchiga savol beribdi:

– Domla, nega bankdan kredit olsak darrov garov so'rashadi? Lekin biz pulni bankka omonat qilib qo'ysak, bank bizga garov sifatida hech narsa bermaydi?

FOYDALI MASLAHATLAR

– Har kuni o'zingiz uchun aniq, kichik maqsad qo'ying – katta natijalar shu qadamdan boshlanadi.

– Har kuni kamida 15–20 daqiqa kitob o'qing – bilim izchil o'sadi.

– O'zingizni boshqalar bilan emas, kechagi o'zingiz bilan solishtiring – haqiqiy o'sish

shu yerda.

– Xatolaringizdan qo'rqmang, ularni tahlil qilib xulosa chiqaring – eng samarali yo'l shu.

– Vaqtingizni rejalashtiring – tartib intizomni kuchaytiradi.

– Atrofingizda ilhom beradigan insonlar bo'lsin – muhit juda muhim.

ILLAT IZLAGANGA ILLATDIR DUNYO

Ayol asabiy holda yo'lda ketayotib o'ylardi:

– Hamma qo'pol va yoqimsiz. Eri – ko'p ichadi va odammas. Bolalar – ikkichi va gapga kirmaydi. Men esa – bechora va baxtsizman...

Uning yonidagi farishta hammasini yozib borardi: "Hamma qo'pol va yoqimsiz. Eri ko'p ichadi..." va hokazo.

So'ngra farishta ularni qayta o'qib o'yladi:

– Bular nima uchun kerak bu ayolga? Lekin agar u shunday desa, bajarish kerak...